

## “Beshik To’yi” Marosimining Lingvokulturologik Xususiyatlari

*Abdusalomova Ozoda Abduxalil qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** maqolada beshik to’yi marosimining hududlararo o’tkazilishi bilan bog’liq ayrim tafovutlar, jarayon davomida aytiluvchi iboralar va ba’zi predmetlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, marosimlarni tadqiq etishda ayrim manbalarga tayangan holda va amaliy kuzatishlar asosida qiyoslash, chog’ishtirish kabi metodlardan foydalanildi.

**Kalit so’zlar:** til, madaniyat, marosim, tadbir, beshik, borkash, magik niyat.

### Kirish

Marosim va urf-odatlar har bir xalqning madaniy merosini aks ettiruvchi ijtimoiy va ma’naviy hodisadir. Ular xalqning hayot tarzini, qadriyatlarini, e’tiqodini, madaniy rivojlanish jarayonini, bir so’z bilan aytganda, xalqning tarixiy xotirasini ifodalaydi. Marosim va urf-odatlar inson hayotining turli davrlariga, muhim voqealariga bag’ishlangan bo’lib, milliy birlik va birdamlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Mana shunday marosimlardan biri “Beshik to’yi” marosimidir. Bu marosim farzand tug’ilganidan so’ng chaqaloq va uning yaqinlari o’rtasida o’tkaziladi. Dastlab beshik va uning o’ziga xos xususiyatlari haqida to’xtalib o’tsak. Beshikning tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. U haqida ilk ma’lumotlarni qomusiy olim Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’otit-turk” asarida uchratish mumkin. O’zbek tilining izohli lug’atida beshik atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog’ochidan yasalgan yo’rg’a oyoqli maxsus moslama. Tarix fanlari doktori, etnograf olima B.Ubaydullayevaning fikricha, beshik nafaqat O’rta Osiyoda, balki Eron, Iroq, Mo’g’uliston, Kavkaz xalqlarida ham mavjud. Asli turkiylardan kelib chiqqan, Yevropada yashovchi gagauz xalqi ham beshikdan foydalanadi. Ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, beshik qadimgi Ossuriya xalqiga oid bo’lishi mumkin, bu uning turli xalqlar orasida tarqalishiga sabab bo’lgan.

### Metodologiya

Ushbu tadqiqot metodologiyasi sifatli tadqiqot yondashuviga asoslangan bo’lib, beshik to’yi marosimining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga yo’naltirilgan. Tadqiqot jarayonida hududiy farqlarni o’rganish va an’anaviy marosim elementlarining semantik va ramziy ahamiyatini tahlil qilish maqsad qilingan. Ma’lumotlar yig’ish jarayonida tarixiy va etnografik manbalar tahlili, folklor namunalari o’rganish hamda ishtirokchilarning bevosita kuzatilishi metodlaridan foydalanildi. Beshik to’yi marosimida aytiladigan iboralar va ishlatiladigan predmetlarning lingvokulturologik tahlili orqali xalq madaniyati va e’tiqodlari bilan bog’liqligi aniqlangan. Tadqiqot davomida beshikning material tanlovi va bezaklari, bolani cho’mltirish, beshik solish marosimi kabi jarayonlarning hududiy tafovutlari o’rganildi. Shuningdek, marosim davomida aytiladigan ezgu tilaklar, alla va lapar kabi folklor elementlari ham tahlil qilindi. Bu usullar orqali beshik to’yi marosimi milliy o’ziga xoslik, diniy qadriyatlar va ijtimoiy birlikni aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa ekanligi asoslandi. Tadqiqot natijalari marosim elementlarining semantik va pragmatik jihatlarini aniqlashga yordam berib, o’zbek xalqining madaniy xotirasini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv kelgusida hududiy farqlarni chuqurroq o’rganish va boshqa xalq marosimlari bilan taqqoslash imkoniyatlarini ham ochib beradi.

<sup>1</sup> Andijon davlat universiteti lingvistika (o’zbek tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti



## Natija va Muhokama

O'zbeklar qadim zamonlardan beri beshikning qanaqa materialdan yasalishiga, pardoziga alohida e'tibor berganlar. O'tmishda uni, asosan, tut, o'rik va yong'oq kabi mevali daraxtlardan yasaganlar. Beshikning mevali daraxt tanasidan yasalishiga insonning sermeva ko'p farzandli bo'lishiga oid istakni ramzan nazarda tutganlar.<sup>2</sup> Til va madaniyatda beshik nafaqat bolaning uxlash joyi, balki hayotning boshlanishi va oilaviy qadriyatlar ramzi hisoblanadi. "Beshikdan qabrgacha" iborasi ham hayotning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi tasavvurga ishora qiladi.

Farzand dunyoga kelgandan so'ng o'tkaziladigan ilk muhim tadbirlardan biri – bolani beshikka solish marosimi, yani beshik to'yidir. Marosim odatda chaqaloq tug'ilgan kunning 7, 9 yoki 11-kunida o'tkaziladi. O'zbekistonning ko'plab hududlarida yangi beshikni kelinning ona tarafdan qarindoshlari turli-tuman sovg'alar bilan birgalikda keltirishadi. Beshik to'yi Buxoro viloyatida quyidagi tarzda o'tkaziladi: Chaqaloqning ona tomonidan bobosi va buvisi unga boshdan oyoq ust-bosh, yangi beshik va kerakli ashyolarni hozirlab, to'y boshlangan kuni ularni sovg'a sifatida jo'natadi. Bu sovg'alarni oyog'iga yog'och bog'lab, qo'lida qayroqtosh ushlab olgan bolalar nog'orachi, karnaychi va surnaychilarning nag'malariga mos holda o'ynab olib borishadi. Ularning orqasidan sovg'a-salomlarni ko'targan ayollar, beshik ko'targanlar borishadi. Folklorshunos olim O.Safarovning fikricha ular borkashlar deb yuritiladi.<sup>3</sup> Uy egalari mehmonlarning yuzlariga un surtib, kutib olishadi. Bu bilan chaqaloqning umr yo'li oq, o'zi baxtli va farovon bo'lishiga istak bildirishadi.<sup>4</sup> Marosimning asosiy qismi kelin tomon keltirgan beshikka chaqaloqni yotqizish uchun tayyorgarlik ko'rish bilan boshlanadi. Yoshi ulug' ayol boshchiligida chaqaloq cho'miltiriladi. Ayrim joylarda chaqaloq cho'miltirilayotganda tog'oraga kumush tangalar tashlanadi (ma'lumki, kumush suvni zararkunandalardan xoli qiladi). Bola cho'miltirilganidan so'ng bu tangalar bolalarga ulashiladi.<sup>5</sup> Shuningdek, ba'zi joylarda, xususan, Andijon viloyati va uning tumanlarida chaqaloqni shirin suv bilan yuvintirish odat tusiga kirgan. Bu bilan uning keyingi hayoti ham "*Asaldek totli bo'lsin*" degan magik niyat mavjud. Marosim davomida ishlatiladigan narsa-buyum va ishtirokchilar tomonidan aytiladigan so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlariga to'xtalsak. Har bir buyum amaliy ahamiyat kasb etishi bilan birga til va madaniyatning uyg'unligini ko'rsatuvchi o'ziga xos semantik va ramziy xarakterni ham ifoda etadi. Masalan, beshik va uning tarkibiy qismlarini olsak, unga to'shaluvchi choyshablar oppoq rangda bo'ladi. Bu poklik va begunohlikni ifodalaydi. Beshik ichiga solingan qand va har xil shirinliklar bolaga shirin hayot tilash va uning taqdiri baxtiyor kechishini orzu qilish kabi magik niyat bilan bog'liq. Yuqorida keltirilgan chaqaloqni cho'miltirish davridagi "shirin suv" ham shuning jumlasidandir. Sovg'a tariqasida olib kelingan o'yinchoqlar ham ramziy ma'noga ega. Ular odatda bola jinsiga mos tarzda tanlanadi. Qo'g'irchoq qiz bolalar uchun onalik tuyg'usini, o'yin qurollari esa o'gil bolalarga mard va jasur bo'lishlikni o'rgatadi.

Tadbir jarayonida aytiladigan so'z va iboralar ko'pincha ezgu tilak va duolarni o'z ichiga oladi. Masalan, "*Alloh umrini uzun, baxtini yorqin qilsin*", "*Beshikda bexavotir yotsin*", "*Omadli va baxtli bola bo'lsin*" kabi. Shuningdek, marosim davomida har xil qo'shiq, lapar yoki alla kabi folklor namunalarini aytish odat tusini olgan va u xalqning estetik dunyoqarashi hamda his-tuyg'ularini ifodalashga xizmat qiladi. Birgina alla qo'shiqlarini oladigan bo'lsak, u onaning farzandga bo'lgan butun mehr-muhabbatini tilda aks ettiradi. Bu esa madaniyatning qadimiy qatlami sifatida bolaga ana shu mehrning singishida muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, marosimda Qur'on oyatlari, turli duo matnlarini o'qish, chaqaloqni qutlug' tilaklar bilan o'rab olish xalqning diniy e'tiqodlarini aks ettiradi. Til bu yerda muloqot vositasigina bo'lib qolmay, balki muqaddas matnlar orqali madaniyat va ma'naviyatni tarqatish vositasiga ham aylangan.

<sup>2</sup> Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. Toshkent, 2020. 185-b.

<sup>3</sup> Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent, 2010, 135-b.

<sup>4</sup> Саримсоқов Б. Маросим фольклори // Ўзбек фольклори очерклари. –Т.: "Фан", 1988, 188-б

<sup>5</sup> Коробоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Т., "Шарк", 2002, 121-б.



## Xulosa

Xulosa shuki, beshik to'yi va shu kabi ko'plab marosimlar til va madaniyat birligini ko'rsatib beruvchi an'anaviy hodisa hisoblanadi. Mana shunday tadbirlar orqali til va madaniyat xalqning qadimiy urf-odatlarini, diniy va ijtimoiy qadriyatlarini bilan uyg'unlashib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan bebaho boylik sifatida namoyon bo'ladi. Bu nafaqat chaqaloqning hayotga qadam qo'yishini nishonlash, balki xalqning ma'naviy merosini saqlash va kelgusi avlodga uzatish vazifasini ham bajaradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. Toshkent, 2020, 237b.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent, 2010, 370b.
3. Корабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Т., “Шарк”, 2002, 240b.
4. Саримсоқов Б. Маросим фольклори // Ўзбек фольклори очерклари. –Т.: “Фан”, 1988.

